

## LINGVISTIK INTERFEYSIYA HODISASI VA UNING MOHIYATI

Xayitova Dildora

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784692>

**Annotasiya.** Mazkur maqolaning maqsadi interferensiya hodisasini lingvistik jihatdan turli til sathlari doirasida tahlil qilishdan iborat. Bu tadqiqotni amalga oshirishda lingvistik tahlil, qiyoslash, solishtirish va adabiyotlar tahlilidan foydalanildi. Interferensiya va uning turlari, bir-biridan farqi lingvistik tahlil asosida ko’rib chiqildi. Interferensiya ijobiy va salbiy tomonlari o’rganildi.

**Kalit so‘zlar:** Interferensiya, salbiy va ijobiy interferensiya, sotsiolingvistika, fonetik interferensiya, lingvistik interferensiya.

## ФЕНОМЕН ЯЗЫКОВОГО ИНТЕРФЕЙСА И ЕГО СУЩНОСТЬ

**Аннотация.** Целью данной статьи является лингвистический анализ явления интерференции в рамках разных языковых уровней. При реализации данного исследования были использованы лингвистический анализ, сопоставление, сопоставление и обзор литературы. Интерференция, ее виды и различия рассмотрены на основе лингвистического анализа. Изучены положительные и отрицательные стороны интерференции.

**Ключевые слова:** Интерференция, негативная и позитивная интерференция, социолингвистика, фонетическая интерференция, языковая интерференция.

## PHENOMENON OF LANGUAGE INTERFACE I EGO SUSCHNOST

**Abstract.** The purpose of this article is to analyze the phenomenon of interference linguistically within the framework of different language levels. Linguistic analysis, comparison, comparison and literature review were used in the implementation of this research. Interference and its types and differences were considered on the basis of linguistic analysis. The positive and negative aspects of interference were studied.

**Keywords** Interference, negative and positive interference, sociolinguistics, phonetic interference, linguistic interference.

**Kirish.** Til jamiyatda, kishilar hayotida axborot vositasi, ijtimoiy hodisa sifatida uzbek bog’liq. Til jamiyat boyligi u jamiyat a’zolarining o’zaro aloqasini ta’minlovchi vosita. Til asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo’ladi. Tilning jamiyatdagi mavqeyi hamda insonlar hayotidagi shakllanishi, ularning bir-biriga ta’sirini o’rganuvchi fan sotsiolingvistika deb nomlanadi.

Jamiyatning tilga, tilning esa jamiyatga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida bir qator masalalar bilan shug'ullanadi. Shu kabi masalalardan biri, ikki va ko'p tillik asosida paydo bo'ladigan hodisalardir.

**Asosiy qism.** Uzoq vaqt davomida tilshunoslikda interferensiya hodisasi faqat to'g'ridan to'g'ri til aloqasi natijasida kelib chiqishi kuzatilgan. XIX asrning oxirida ko'p millatli davlatlarda tillarni o'rganish natijasida, olimlarlar "tillar bir-biriga ta'sir qiladi va tillar aralashadi"- degan xulosaga kelishdi. Garchi, tilshunos olimlar bu kabi masalarda tadqiqotlar olib borishgan bo'lsalarda shunga qaramay, bir qancha sabablarga ko'ra bu mavzular dolzarbligicha qolmoqda.

Interferensiya hodisasining ta'rifi haligacha bahsli bo'lib kelmloqda.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, interferensiya hodisasiga asosan salbiy ma'nodagi qarash ilgari surilgan. Vaqt o'tishi bilan uning tilga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Keyinchalik interferensiya namoyon bo'ladigan sohalar o'rganilin, bu borada olimlarning qarashlari turlicha bo'ladi. Biroq an'anafga ko'ra, interferensiya fonetik, kelsik va Grammatik bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishgan. XX asrning oxirida ular bu hodisani tillararo ham bo'lishi mumkinligini ta'kidlashgan. Rus-polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurteni tillarning aralash tabiatni haqida birinchliardan bo'lib ta'kidlagan edi. Tillarning bir-biriga ta'siri ostida, olim aloqda paytida tillarning qayta tuzulishi haqida fikr yuritadi. Shu bilan birga uning asosiy jarayonlari ya'ni tillar aloqaga kirishganda nafaqat bir tilning, boshqa til birliklarini qarz olishi balki, umuman yaqinlashishi ham sodir bo'ladi degan xulosaga kelgan. I.A.Boduen de Kurtenening fikri sharqiy lusatiya lahjasini o'rgangan tilshunos olim Shcherba tomonidan davom ettirildi. Ushbu tadqiqotlar olimga, til aloqalarining zamonaviy nazariyasini hamda muhim bo'lgan xulosalar chiqarishga imkon berdi.<sup>1</sup> Aynan L.Vshcherba til aloqalarini interferensiya jarayoni sifatida o'rganish va tavsiflash dasturini bayon qilgan. Ushbu jarayonning mohiyati ma'ruzachi tili va tinglovchi tilining o'zaro moslashishi va ikki aloqa qiluvchi til normalarining mos ravishda o'zgarishi bilan shakllanishi ta'kidlangan va shunga asoslanib 1915-yilda "Sharqiy lusatiya lahjası" asarini yaratadi.

Shuningdek, til insonlar orasida kommunikatsiyada muhim ro'l o'ynaydi. Tilning jamiyat bilan aloqasi, lisoniy vositalarning ijtimoiy tabiatining insonlar hayotida o'rmini o'rganuvchi tilshunoslik tarmog'I sifatida sotsiolingvistika deb nomlanadi. A.Berdialiyevning ta'biri bilan aytganda "tilshunoslikning chaqaloq nabirasi" sotsiolingvistika (lotincha. Societas- jamiyat, lingvistika-til) tilshunoslik esa sotsiolingvistika fanlari aloqasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, tilning ijtimoiy tabiatni, vazifalari, til siyosati, tilning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq muammo va masalalarni o'rganuvchi soha.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Berdialiyeva A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi – Hojand 2015.

<sup>2</sup> Vinogradov V.A. Interferences Lingueistic Enyclopic Dictionary.

Til jamiyatda rivojlanar ekan, ijtimoiy omillar tilga o'z ta'sirini o'tkazadi. Zero, til "aloqa quroli" sifatida o'zi xizmat qilayotgan jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, va madaniy hayoti bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Insonlar tabiatan, qiziquvchan, intiluvchan, doimo yangi bilimlarni egallah, ko'proq o'rganish ehtiyojida bo'ladi va bunga xorijiy tillarni o'rganish va maqsadlarni amalga oshirishda asosiy omildir. Albatta, xorijiy tillarni o'rganish jamiyat uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyojlar asosida ikki tillik va ko'p tillik vujudga keladi. Buning natijasida so'zlovchi ongida tillar o'zaro aloqaga kirishadi va nutqda tillar kontakti kuzatiladi.

"Odatda, boshqa tilni yoshlikdan mukammal o'rganmagan shaxs, ona tili sistemasi asosida fikrlagan holda nutq yaratadi. Boshqa tilning lisoniy sistemasi o'zgacha bo'lsa, o'ziga xos lisnoiy to'siq – lingistik interferensiya hodisasiga duch keladi. Tilshunoslikda interferensiya sotsiolingvistika tushuncha sifatida qaraladi. Bir tilga xos xususiytaning boshqa til qurulishi yoki uning biro til ichki tizimiga lisoniy jihatidan ta'siri interferensiya deyiladi. Agar ikkita tilni solishtirganda, ona tili va chet tili strukturalari bir-biriga o'xhash bo'lsa interferensiya ijobjiy kuchayadi. Tillar qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, ijobjiy interferensiya tillar bir-biriga o'xshamagan bo'lsa salbiy interferensiya hisoblanadi.

**Natijalar va muhokama.** Fonetik interferensiya til o'rganish jarayonida xorijiy til orfoepik me'yorlarining buzulishi, chet tiliga oid fonemalarning ona tiliga moslab talaffuz qilinishida namoyon bo'ladi. Interferensiyamimg fonetik ko'rinishi eng keng tarqalgan bo'lib, tovushlar talaffuzi, urg'u me'yorlarining buzulishida namoyon bo'ladi. Bu hodisa ko'p hollarda aksent deb ataladi va noto'g'ri talaffuzni nomlash uchun ishlatiladi. Interferensiyalar, fonetik, leksik, sintaktik bo'lishi mumkin. Bu kabi interferensiyalarga avvalo so'z boyligi yetishmasligi, Grammatik bilimlarning kamligi sabab bo'ladi. Agar interferensiyaning morfologik ko'rinishini tahlil qilsak, bu borada tilshunos Al-xreshe 2011-yilda arab tilida gapiruvchi lordaniya maktabi o'qituvchilarining arab tili va ingliz tili morfologik birliklari interferensiyasi bo'yicha, tajriba o'tkazgan. BU tajribaga ko'ra, o'quvchilar ingliz tilida matn yaratganda ko'p holatlarda ing, "and" bog'lovchining o'rniga rab tiliga xos "va" bog'lovchisini qo'llagan. Bu morfologik interferensiyaning ko'rinishiga misol bo'la olgan.

**Xulosa.** Demak, interferensiya tillarning o'zaro ta'siirda vujudga keladigan jarayon bo'lib, tilning barcha sathlarida namoyon bo'ladi. Asosan, interferensiya til o'rganuvchilarning nutq jarayonida sodir bo'ladigan hodisa. Til o'rganuvchining ona tili va chet tili o'rtasidagi ta'sir sifatida tushunish mumkin. Til o'rganish jarayonida so'zlovchining ona tili, fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarini uning chet tili o'rganish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi.

## REFERENCES

1. <https://t.me/open.scholar>. 02.2023.

2. Berdaliyeva A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi – Hojand 2015.
3. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi – Toshkent. 2016.
4. www. Wikipedia. Org. language transfer. Date of accsess. 2022.
5. Vinogradov V.A. Interferences Linguestic Encyclopic Dictionary.
6. James email Flege and Robert Port. Cross- language Phonetik Interference
7. Turayeva.M. Interlinguaab interference in language learning// ttps; www cyberlinika.ru /  
Date of accsess 2020.